
TOSHLOQLIK ZIYORATCHILAR MUBORAK HAJ SAFARIGA KUZATILDI

Ziyoratchilarni kuzatish marosimida tuman hokimligi hamda sektor rahbarlari ishtirok etdilar. Shu munosabat bilan tashkil etilgan tadbirda soʻzga chiqqanlar Haj tadbirlariga tayyorgarlik koʻrish, ularni oʻtkazish borasida mamlakatimizda ibratli ishlar amalga oshirilayotgani hamda ziyorat safariga yoʻl olgan yurtdoshlarimiz uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlarni alohida mamnuniyat bilan eʼtirof etishdi. Shuningdek, ayni jarayonda bevosita davlatimiz rahbarining gʻamxoʻrligi natijasida bu yil ham minglab vatandoshlarimiz oʻz farzlarini emin-erkin bajarish baxtiga erishayotganini taʼkidlab oʻtildi. Bugun ziyoratchilarni safarga joʻnatish bilan bogʻliq kuzatuv marosimlari namunali tashkil etildi. Tumanda istiqomat qilayotgan 73 nafar ziyoratchilar Fargʻona xalqaro aeroportidan Saudiya Arabistoniga joʻnab ketishmoqda.

2024-05-29 18:13:07